


XITOIY TILIDAGI QARINDOSH-URUG‘CHILIK ATAMALARINING HOSIL BO‘LISH USULLARI

 10.24412/2181-1784-2021-1-293-299

Maqsudxo‘jayeva Laziza To‘lqin qizi

O‘zDJTU Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti o‘qituvchisi

e-mail: M.Laziza_1505@mail.ru

Annotation. *In this article is given the information about construction of kinship terms in Chinese, their methods and their formation using affixes, suffixes and prefixes.*

Keywords: *Erya, affix, prefix, suffix, affixation, morpheme, dialect of wú (wu), Qin period, derivative.*

Argument tilni tashkil etish jarayonida muhim element bo‘lib, tilning boyligi va murakkabligini shakllantirish uchun uning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi kerak. So‘zning shakllanishi bitta narsaga asoslanmaydi, balki ichki va tashqi omillarga ham asoslanadi. Til va yozuvning ichki asoslari til va yozuvning ichki shaklini tahlil qilinishi kerak bo‘lgan turli xil elementlarning uyg‘unligini anglatadi. Tilning tashqi asosi – bu lisoniy belgilar va tashqi dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi mantiqni anglatadi, bu til tizimidan tashqarida, ya‘ni til tomonidan aks ettirilgan madaniy hodisadir.

Xitoy tilida so‘z qo‘shish usuli asosiy usul sifatida ko‘riladi barcha manbalarda, lekin qarindoshlik atamalarining hosil bo‘lishida miqdoriy tahlil shuni ko‘rsatdiki, 90 % atamalar aynan affiksatsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan.

So‘z hosil qilish so‘zlarning ichki tuzilishini, ya‘ni morfema birikmasining usuli va ko‘rinishini anglatadi. Tildagi har bir so‘zlarning barchasini so‘z yasalihi nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin va qarindoshlik atamalari bundan mustasno emas. So‘zlarning yasalihi nuqtai nazaridan dialekt variantlarini ikki toifaga ajratish mumkin, ya‘ni hosil qilingan so‘zlar va aralash so‘zlar.

Derivativlar - ildiz va affikslardan tashkil topgan so‘zlar. Dialekt variantlarida ildiz va affikslarni birlashtirishning uchta usuli mavjud, ya‘ni prefiks, infiks va suffiks.

Xitoy tilida affiksatsiya usuli so‘z qo‘shish usulidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Lekin terminlarning yasalihidagi samaradorligiga ko‘ra so‘z qo‘shish va

o‘zlashtirish usullaridan keyingi o‘rinni egallaydi. Affikslar grammatik ma’noga ega bo‘lgan morfemalardir. Affikslar o‘z ichiga prefikslar, suffikslar va yarimsuffikslarni oladi¹. Affikslar va yarimaffikslar farqlanish masalasi V.Tzugin, I.Jdankin, O.Frolova va Jen Syuelyan tomonidan o‘rganilgan². Xitoy tilshunoslari orasida qaysi morfemalarni prefikslar (前缀 qianzhui) deb qabul qilish mumkin yoki mumkin emasligi xususida turlicha yondashuvlar mavjud. Lu Chjivey xitoy tilida faqat uchta 第 di, 老 lao va 小 xiao prefikslari mavjud, deb ko‘rsatadi³.

Din Shenshu “Xitoy tilida faqat 第 di, 老 lao va 打 da prefikslari mavjud bo‘lib, 自 zi “o‘zim”, 相 xiang “o‘zaro” va 反 fan “anti” affikslarga o‘xshashdir”, deb ta’kidlagan⁴. Ushbu fikr xitoy tilida affiksatsiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan terminlarga mos keladi va 反 fan “anti” affiksi, 第 di prefiksi ko‘proq kuzatiladi. 反 “qarama-qarshilik, antagonizm” ma’nosida qo‘llanilib, o‘zbek tilidagi “aks (i)-, anti-” prefiksi ma’nosiga yaqin.⁵

Qanday morfemalarni "Affikslar" deyish mumkinligi haqida, janob 赵元任先生 (Chjao Yuanren) o‘zining 《汉语口语语法》 "Og‘zaki xitoy tili grammatikasi" da shunday xulosa chiqargan: "Hozirgi xitoy tilida ko‘p so‘zlar ikki bo‘g‘inli yoki ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga aylangan. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlar - hozir faqat qo‘shma so‘zlarda qo‘shma morfemalar ko‘rinishida uchraydi. Murakkab so‘zlarda uchraydigan bir necha shaklli birliklar o‘z ma’nolarini yo‘qotib, affiks identifikatorlarini oldilar, ular ishtirok etgan so‘zlarning funktsiyalarini belgilab oldilar va har xil so‘z birikmalarini hosil qildilar”. "Yuqoridagi matndan ko‘rish mumkin, janob 赵元任 (Chjao Yuanren) affikslar ikki shartga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaydi: biri murakkab so‘zlar tarkibidagi qo‘shma morfemalar, ikkinchisi esa negiz sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Shuning uchun, dialekt varianti uchun, agar uning tarkibiy morfemalaridan biri bu dialekt varianti qarindoshlik atamalariga murojaat qilsa, hamda bu morfemadan tashqari qismlar o‘z negizlarini yo‘qotgan bo‘lsa, ularni affikslar sifatida aniqlash mumkin. Quyida, oldingi bobdagi jadvalda keltirilgan qarindoshlik atamalarining dialekt variantlari tahlil qilamiz.

¹ Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.: Муравей, 2000. – С. 89.

² Цыкин В.А. Полуаффиксация в системе китайского словообразования // Вопросы языкознания, № 5, 1979. – С.45; Жданкин И.В. Слова единицы речи в китайском языке. – М., 1986. – С.78; Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск, 1981. – С.56.

³ Лу Чживей. Словообразование китайского языка. – Пекин, 1964. – С.164.

⁴ Дин Шеншу и др. Лекции по грамматике современного китайского языка. – Пекин, 1979. – С.37.

⁵ С.А.Носирова. Хитой тилининг ижтимоий-сиёсий ва дипломатик терминологияси.-Тошкент, 2011. – С.148 .

1. Prefikslar: umumiy 37 ta

Umumiy soʻzlar uchun juda koʻp turdagi prefikslar mavjud, masalan: 阿(A), 老(lao), 第(di), 初(chu) va boshqalar, ammo qarindoshlik atamaları dialekt variantlarining yasalişida, faqat ikki xil prefiks qoʻllaniladi. 阿(a) va 老(lao), masalan:

阿太(buvi/buvaning onasi), 阿祖(见。曾祖父 прадед buvi/buvaning otasi”条) 阿公(qaynota erning otasi), 阿爷(见。祖父一条)阿丈, 阿父, 阿爸, 阿爹, 老著, 阿達(见。父 4 条)阿妈(ona), 阿姆(enaga), 老丈人(qaynota –xotinning otasi), 老外伯(见一岳父一条 erning akasi) 老丈母(xotinning onasi).

Prefiks 阿

“阿”(A) Prefiks sifatida birinchi navbatda odam ismining oldida ishlatilgan. “十驾斋养新录” (Shijiazhai yang xinlü) 19-jildda keltirilgan : “Xan va Vey sulolalari” davrida ham ayollar chaqiriladigan soʻzlarda ham “阿”(A) prefiksi qoʻllanilganini koʻrishimiz mumkin. Masalan, 陈皇后小字阿姣 (a jiao).

“阿”(A) soʻzi birinchi marta “汉书·游侠传·陈遵传” da ayol nomi uchun ishlatilgan. Sharqiy Xan sulolasining oxiriga kelib, “阿”(A) soʻzi qarindoshlik atamaları oldidan ishlatilishi boshlangan, masalan: “Xan Yuefu xalq qoʻshigʻi” satrlarida ham koʻrishimiz mumkin: “府史得闻之, 堂上启阿母。” yoki “阿爷无大儿, 木兰无表兄。” , “阿兄得闻之, 怅然心中烦。举言谓阿妹, 作计何不量。”

Zamonaviy lahjalarda 阿妈(a ma- ona), 阿姐(a jie - opa), 阿婆(a po- qaynona) kabi qarindoshlik atamalarida hozir ham “阿”(A) prefiksini ishlatilish holatlari mavjud.

"Xitoy dialektlari lugʻatida" prefiks sifatida "阿" dan foydalanadigan qarindoshlik atamalarining tarqalgan joylari: "Markaziy tekisliklardagi mandarin tilida, janubiy-gʻarbiy mandarin tilida, 吴(wu) dialektida, min dialektida, 平话 (pinghua) da keng qoʻllanilganini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, u koʻproq dialekt sohalarini qamrab oladi. Umuman olganda, “阿”(A) old qoʻshimchasi odatda munosabatlar nisbatan yaqinligini anglatadi.

Prefiks “老”: lao ning asl maʼnosi yoshi katta, yoshi ulugʻ deganidir, u oʻzining haqiqiy maʼnosini saqlab qolgan. Masalan: 《说文·老部》: “,/.。七十日老。”《易·大过》: “九五, 枯杨生华, 老妇得其士夫, 无咎无誉。”《书·商书·盘

庚》：“汝无悔老成人，无弱孤有幼。各长于厥居。勉出乃力，听予一人之作猷⁶。”

Keyinchalik jummalarni soʻzga biriktirish jarayonida “老” (Lao) soʻzdan morfemaga oʻtishni boshladi va bu jarayonda “老” (Lao) preffiksi hosil boʻldi. “老” (Lao) preffiks sifatida olti sulola davri mobaynida ishlatilgan. Misol uchun: 《晋书·郭奕传》：“大丈夫岂当以老姊求名?”

“老” (Lao) preffiks sifatida ishlatilishi koʻp hollarda uchraydi, hamda oldin oldin ishlatilishi keng tarqalgan. Masalan: 《北齐书·儒林传·石曜》：“此是老石机杼，聊以奉赠。Keyinchalik u qarindoshlik atamalaridan oldin ishlatilgan, masalan, 宋吴白牧(Song Wubaimu) tomonidan 《梁梦录》(Liang Menglu): 时来运转，买田庄，取老婆。《儒林外史》第十七回：“哎呀，原来是老弟，几时来?”

Dialektlarda “老” (Lao) preffiksi qarindoshlik atamalaridan oldin ishlatiladi, bu qarindoshlik atamalarini ikki semantikasini koʻrsatib beradi: biri yaqin va chuqur munosabatlar his-tuygʻularni anglatadi, masalan: 老公(laogong), 老婆(laopo) yaʼni er va xotin kabi. Yana biri esa 老丈人(Laozhangren) va 老丈母(Laozhangmu) yaʼni qaynona va qaynota(xotin tomondan) kabi hurmat va yaqinlikni koʻrsatishdir.

2. Infiks uslubi, umumiy 53 ta.

Infikslarga: 老(lao), 阿(a), 儿(er) kiradi.

Misol uchun: 兄弟老妹(见。弟妇一条) aka-uka va opa-singil, 叔伯阿哥-amakivachcha, 堂房阿哥-otaning amakisi, 堂阿哥-otaning amakivachchasi, 叔伯阿兄-amakivachcha(uka), 堂老兄, 堂老伯-amaki (otaning doʻstiga nisbatan) (见 "ORE"条)叔伯阿弟 amakivachcha(uka), 堂房阿弟, 堂阿弟, 叔伯老弟, 堂老弟 (见。堂弟一条)叔伯阿姊 amakivachcha(katta opa), 叔伯阿姐 amakivachcha(opa), 叔伯阿姪(amkini qizi), 丈母阿妈, 丈兄婆, 丈儿娘(见“岳母一条 qaynona-xotinning onasi) 外家老弟(见。内弟一条 kichik togʻa) 妻阿姊 katta hola, 姑母阿姐 katta amma(见“姨姊一条) 丈兄哥(见“内兄一条 katta togʻa) 妻阿姐, 姑母阿姐, 丈儿妹子,孩儿他爹 bollarning otasi.

Ushbu infikslar qarindoshlik atamaları oʻrtasida joylashgan boʻlsa-da, ularning oldingi va keyingi ikki qism bilan oʻzaro munosabatlari bir xil emas. Ikkita asosiy tur mavjud: biri “阿” va “老” preffikslariga oʻxshaydi. U preffiks sifatida ishlatilganda ham xuddi shunday holatda, qarindoshlik atamaları oldidan qoʻyiladi, masalan, 姐,

⁶张红新. 刘峰. 前缀“老”和“老”缀词语义色彩探微[J]. 安徽大学学报, 2000. 3. 66—67.

哥, 兄(opa, aka, uka) va boshqalar oldida joylashtirilgan, ammo qarindoshlikni bildiruvchi morfemalar old tomonga qo‘shiladi, masalan: 叔伯阿哥, 兄弟老妹 (amaki, uka va singil) kabi. Shundaylardan biri, "儿" qo‘shimchasiga o‘xshash holat. "儿" infiks sifatida ishlatilganda, u asosan oldingi relatsion morfemaga o‘xshash bo‘lib, undan keyin erifikatsiya holatiga uchraydi.

3. Postfiks usuli, umumiy 297 ta.

Postfikslar o‘z ichiga: 子 zi, 唧 jī, 啊 a, 伢 lè, 格 gé, 哩 lī, 儿 er, 匕 bǐ, 仔 zǐ, 咆 páo, 地 de, 里 lǐ, 佬 lǎo, 老倌 lǎo guān, 的 de, 买 mǎi, 则 zé, 得 dé, 伢 yá, 嗯 én, 唉 āi, 绷 bēng, 呀 ya, 基 jī, 事 shì, 咧 liě, 嘞 lei, 二 èr, 件 wǔ, 低 dī, 汝 rǔ, 吾 wú, 件 wǔ, 头 tóu va boshqalar.

Suffikslar orqali yasalgan qarindoshlik atamaları nisbatan ko‘proqdir, ular lahjalardagi qarindoshlik atamalarining deyarli 77% ni tashkil qiladi. 则 zé, 绷 bēng, 唧 jī kabilar bundan mustasno. Nisbatan ko‘p qo‘llangan suffikslarga “子 zi” va “儿 er” kabilarni kiritishimiz mumkin.

“子 zi” suffiksining oldingi asl ma‘nosi 幼儿 yòu‘ér go‘dak, 婴儿 yīng‘ér chaqaloq bola kabi ma‘nolarni anglatgan, shundan kelib chiqib kichkina degan ma‘noni bildiradi. Keyinchalik uning ma‘no ko‘lami kengayib 子女 zǐnǚ, 儿子 érzi va 男子 nánzǐ kabi so‘zlarda o‘zining haqiqiy ma‘nosida qo‘llanila boshlangan. Ot affiksi. 子 zi paydo bo‘lgan davri biroz oldinroqga borib taqaladi, Qin davri⁷da allaqochon ishlatilishi boshlangan edi. O‘rta asrlarda 子 zi affiksi asta-sekin keng qo‘llanila boshlandi. 子 zi affiksi qarindoshlik atamalarining lahjalardagi ko‘rinishida ko‘proq uchraydi.

So‘z oxiridagi 儿 er ning kelib chiqishi 子 zi ga nisbatan kechroq uchraydi, uning asl ma‘nosi yosh boladir, keyinchalik esa postfiks sifatida qo‘llanilgan. Dialektlardagi "er" affiksi ko‘proq keng tarqalgan, ayniqsa Xarbin, Jinan va shu kabi boshqa shimoliy dialektlarda nisbatan ko‘proq, janubiy lahjalarda esa odatda "er" affikslaridan foydalanilmaydi.

唧 jī asosan Hunan provinsiyasida ya‘ni 娄底 lóudǐ, 湘乡 xiāng xiāng kabi joylarda keng qo‘llaniladigan affiksdur. 唧 jī suffiksi so‘z yasovchi bo‘lib keladi, chunki bu yerlarda 叔 shū, 婶 shěn, 太 tài kabi so‘zlar yakka holda qo‘llanilmaydi va albatta unga 唧 jī suffiksini qo‘shish kerak. Qarindoshlik atamalarining oxirida 唧 jī ning kelishi ular orasidagi munosabatning yaqinligini anglatadi. Faqatgina o‘ziga

⁷ Qin davri milloddan avvalgi 221-yillar.

yaqin bo‘lgan qarindoshlarga nisbatan 唧 jī ni qo‘llash mumkin. Masalan otasining ukasini 叔唧 shū jī deb atashimiz mumkin, lekin otaning amakisini esa oddiygina qilib 叔叔 shūshū ya’ni amaki deb aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni etish mumkinki, xitoy tilida affiksatsiya usuli so‘z qo‘shish usulidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Lekin terminlarning yasalişidagi samaradorligiga ko‘ra so‘z qo‘shish va o‘zlashtirish usullaridan keyingi o‘rinni egallaydi. Affikslar grammatik ma’noga ega bo‘lgan morfemalardir. Affikslar o‘z ichiga prefikslar, suffikslar va yarimsuffikslarni oladi

Umumiy so‘zlar uchun juda ko‘p turdagi prefikslar mavjud, masalan: 阿(A), 老(lao), 第(di), 初(chu) va boshqalar, ammo qarindoshlik atamaları dialekt variantlarining yasalişida, faqat ikki xil prefiks qo‘llaniladi. 阿(a) va 老(lao), masalan:

阿太(buvi/buving onasi), 老公(er).

Dialektlarda “老” (Lao) prefiksi qarindoshlik atamalaridan oldin ishlatiladi, bu qarindoshlik atamalarini ikki semantikasini ko‘rsatib beradi: biri yaqin va chuqur munosabatlar his-tuyg‘ularni anglatadi, masalan: 老公(laogong), 老婆(laopo) ya’ni er va xotin kabi. Yana biri esa 老丈人(Laozhangren) va 老丈母(Laozhangmu) ya’ni qaynona va qaynota(xotin tomondan) kabi hurmat va yaqinlikni ko‘rsatishdir.

Infikslarga: 老(lao), 阿(a), 儿(er) kiradi. Misol uchun: 兄弟老妹 aka-uka va opa-singil; 叔伯阿姊 amakivachcha(katta opa); 孩儿他爹 bollarning otasi.

Xitoy tilida kompozitsiyaning atributiv modeli ko‘p qo‘llaniladigan modellardan hisoblanadi. Aytib o‘tish joizki, bu model bo‘yicha turli gap bo‘laklariga aloqador so‘zlar ham hosil bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.: Муравей, 2000. – С. 89.
2. Цыкин В.А. Полуаффиксация в системе китайского словообразования // Вопросы языкознания, № 5, 1979. – С.45; Жданкин И.В. Слова единицы речи в китайском языке. – М., 1986. – С.78; Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка.– Новосибирск, 1981. – С.56.
3. Лу Чживей. Словообразование китайского языка. – Пекин, 1964. – С.164.

-
4. Дин Шеншу и др. Лекции по грамматике современного китайского языка. – Пекин, 1979. – С.37.
 5. С.А. Носирова. Хитой тилининг ижтимоий-сиёсий ва дипломатик терминологияси. -Тошкент, 2011. – С.148 .
 6. 张红新. 刘峰. 前缀“老”和“老”缀词语义色彩探微[J]. 安徽大学学报, 2000. 3. 66—67.
 7. L Sultanova [PROBLEMS OF STUDYING MODERN CHINESE TERMINOLOGY](#)- Конференции, 2021